O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNING KIRIB KELISHI VA RIVOJLANISHI

A’zamova Marjona
Xaitboyeva Sadoqat
Ne’matova E'tibor
GulDPI Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya: ushbu maqolada hozirgi kunda imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim-tarbiya olishlari uchun qilinayotgan ishlar, inklyuziv ta’lim va bu ta’lim tog‘risidagi qabul qilingan va bu borada bugungi kundagi muammo va kamchiliklar xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: inlyuziv ta’lim ,konsepsiya , reabilitatsiya ,deklaratsiya , salamanka bayonoti , konvensiya .

Abstract: this article talks about the work being done for the education of children with disabilities, inclusive education and the acceptance of this education and the problems and shortcomings in this regard today.

Key words: inclusive education, concept, rehabilitation, declaration Salamanca statement, convention.

BMT Bosh Assambeliyasining 72-sessiyasida 2017-yil sentabr oyida Prezitentimiz tomonidan ilgarisurilgan taklif “Yoshlar huquqlari to‘g‘risida”gi

Xalqaro konvensiya loyihasi ishlab chiqildi.”Yoshlar huquqlari bu eng avvalo ularning sog‘lom yashash hamda ta’lim olishga bo‘lgan huquqlari hisoblanadi , unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol bo‘lib voyaga yetishi , sifatli va mukammal ta’lim olishini ta’minlash yurtimizda inklyuziv ta’limni yuksaltirish masalalari bo‘yicha 2020-2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali quyidagi natijalar kutilmoqda:

alohida ta’lim ehtiyojari bo‘lgan shaxslarning rivojlanishi , reabilitatsiyasi, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’limiy muhiti yaxlitligi mustahkamlanadi, ularning jamiyatga integratsiyasi uchun zarur sharoitlar ta’minlanadi. -inklyuziv ta’lim tizimining umumiy qulayligi, uzluksizligi, ta'lim sifati, shuningdek o‘quvchilarning rivojlanish darajasi, xususiyatlariga moslashuvchanligi va variativligiga erishiladi. Konsepsiya amaliy natijalariga muvofiq Respublika miqyosida o‘tgan 2021-2022 va joriy 2022-2023 o‘quv yilidan 130 dan ortiq umumiy o‘rta ta'lim maktablarida inklyuziv va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar tashkil etildi.

Inklyuziv ta’limning mohiyati shundan iboratki, ruhiy yoki jismoniy rivojlanishda orqada qolganligi sababli maxsus yordamga muhtoj bo‘lgan bolalardan "nogiron" degan tamg‘ani olib tashlab, normal rivojlanishdagi bolalar bilan birga teng huquqlililikni ta'minlash, jamiyatga to‘laqonli, erta moslashtirish, mavjud imkoniyatlaridan foydalana olishlarini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari tizimida o‘qitishdan iborat. Hech o‘ylab ko‘rganmisiz, biz har kuni yurgan yo‘llardan ayrim bolalar yura olmaydi, biz har kuni ko‘rgan go‘zallikni, atrof olamdagi voqea-hodisalarni eshita olmaydi, ko‘ra olmaydi, chunki uning harakatlanishi falajlik oqibatida chegaralanib qolgan, uning ko‘zlari ojiz, quloqlari eshitmaydi. Ammo bu bola ham har tomomlama sog‘lom bo‘lib voyaga yetishi, hamma qatori jamiki go‘zalliklardan bahra olib yashashi mumkin edi, biroq salbiy omillar ta'sirid u bundan bebahra qolgan. Turli xildagi sabablarga ko‘ra ruhan yoki jismonan nuqsonli bo‘lib qolgan bolalarni jamiyatdan alohida etiborsiz holda tashlab qo‘yib bo‘lmaydi. Bunday bolalar nuqsonliligi sababli imkoniyatlari cheklanib qolgan. Imkoniyatlarining chegaralanib qolganligi oqibatida korrksion yordamga muhtoj.

Shuning uchun ham bu vazifalarni to‘laqonli amalga oshirish maxsus yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarni huquqlarini qo‘llab-quvvatlab, ularni joriy etish maqsadida jahon miqiyosida "Inklyuziv ta'lim" siyosat darajasiga ko‘tarilib xalqaro huquq normalari, jumladan, BMTning 1989-yilgi "Bolalar huquqlari to‘g‘risida Konvensiya"si, Dakar Deklaratsiyasi, Salamanka bayonoti va Ish rejasi (1994yil) kabilarda o‘z aksini topgan. Biroq juda ko‘p hollara maxsus yordamga muhtoj bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bunga asosiy sababalar birinchi navbatda ota-onalarning farzandiga bo‘lgan e'tiborining sustligi bo‘lsa, keyingi galda bu bolani o‘qitish uchun ta'lim muassasalarining o‘sha hududda yo‘qligi yoki juda uzoqda joylashganligidir. Mana shunday hol maxsus yordamga muhtoj bola uchun juda ayanchli holdir. Chunki bu bolada mavjud nuqson tufayli uning imkoniyatlari chegaralanib qolgan, ma'lumki bola ta'lim-tarbiya olmasa va undagi nuqsonni tuzatish ishlari olib borilmasa, nuqson darajasi yanada og‘irlashadi, ikkilamchi nuqsonlar kelib chiqadi va uning o‘z o‘ziga xizmat qilish malakalri shakllanmay qoladi. Ijtimoiy hayotga moslashishi qiyinlashadi. Bir so‘z bilan aytganda u "nogiron" bo‘lib qolaveradi.

O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, nafaqat ta’lim tizimini yaxshilash, balki jamiyatni yanada adolatli va barqaror qilishga xizmat qiladi. Har bir bola , o‘z ehtiyojlariga qaramay , ta’lim olish huquqiga ega, shuning uchun bu jarayonni qo‘llab-quvattlash va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentabr.(http://marifat.uz/marifat/ruknlar/rasmiy/4939.htm)

2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz

3. BMTning "Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi(UNCPRD) 2006-yil 13-dekabr

4. O‘zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi.(https://lex.uz/docs/-5044711)

O‘SMIR YOSHIDAGI BOLALARDA DEVIATSIYA TURLARI

S.SH.Turdiboyeva
Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo‘nalishi talabasi
e.mail; turdiboyevasevinchxon@gmail.com
Tel:+998930043113

Annotatsiya: Ushbu maqola globallashuv davrida o‘smirlar orasidagi turli ijtimoiy, psixologik va xulq-atvor deviatsiyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda o‘smirlik davrida yoshlarning turli qiyinchiliklar va stress omillariga qanday reaksiya berishi, bu jarayonlarning

ijtimoiy va psixologik salomatlikka ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, deviatsiyalarning oldini olish va ularni to‘g‘ri yo‘naltirish uchun o‘smirlar bilan ishlashda zarur bo‘lgan pedagogik va psixologik yondashuvlar haqida ham so‘z boradi. Bu davrning psixologik xususiyatlari, o‘smirlarning o‘ziga xos qiyinchiliklari va jamiyat bilan muvofiqlikni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydigan omillar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: deviatsiya, o‘smirlik, tarbiya, jinoyatchilik, depressiya, annemiya, psixologik-fiziologik rivojlanish, og‘ishish, shaxsiyat.

Annotation: This article is dedicated to studying various social, psychological, and behavioral deviations among adolescents in the context of globalization. It explores how adolescents respond to different challenges and stress factors during their developmental period, as well as the impact of these processes on their social and psychological well-being. The article also discusses the necessary pedagogical and psychological approaches to prevent and properly guide deviations in adolescents. It analyzes the psychological characteristics of this period, the specific difficulties faced by adolescents, and the factors that play a crucial role in ensuring their social alignment with society.

Bugungi globallashuv davrida deviant xatti-harakatlar muammosi keskin ravishda rivojlanmoqda. Bu esa jamiyatda turli xildagi huquqbuzarliklar, jinoyatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Eng achinarli jihati shundaki bu qonunbuzarliklar asosan voyaga yetmagan yoshlar tomonidan amalga oshirilmoqda. Rivojlanishning asosida yoshlar bo‘lib turgan bir zamonda millat yoshlarining ta’lim va tarbiyasida kuzatilayotgan deviatsiya davlatning istiqboli va rivojiga putur yetkazishi mumkin. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Haqiqatdan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan masala bo‘lib qolmoqda.”[1] degan so‘zlari yaqqol misol bo‘lmoqda.

Yosh davrlari orasida aynan o‘smirlik juda murakkab davr bo‘lib ko‘pgina psixolog-olimlar tomonidan ushbu davr “o‘tish davri” deb ham yuritilgan. O‘smirlik bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik, psixologik, ruhiy va jismoniy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. «Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas»- degan ta’rif o‘smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. Shuningdek, o‘smirlik davri qarama-qarshiliklarga boy davr deb ham hisoblanadi. Uni ba’zi olimlar “krizislar”, “tanazzullar” davri ham deb ataydilar. Sababi o‘smir ruhiyatida shunday inqiroziy holatlar ro‘y beradiki, u bu inqirozni bir tomondan o‘zi hal qilgisi keladi, ikkinchi tomondan, o‘zi hal qilishga imkoniyati, kuchi va aqli yetmaydi. Ayni mana shu holatlarda noto‘g‘ri berilgan bilimlar, vaziyatga qaratilgan yondashuvlar natijasida bolada turli xil deviatsiya turlarini keltirib chiqaradi.

Deviatsiya - (lotincha "deviatio" - og‘ish) - bu jamiyatda qabul qilingan me'yorlardan og‘ish hodisasi bo‘lib, u ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kuzatilishi mumkin.[2] Bu hodisa nafaqat salbiy, balki ijobiy ko‘rinishlarda ham namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, jinoyatchilik salbiy deviatsiya hisoblanasa, ijodkorlik yoki ixtirochilik ijobiy deviatsiya sifatida baholanishi mumkin.

Amerikalik sotsiolog Robert Merton deviatsiyani "jamiyatda qabul qilingan me'yorlar va qadriyatlardan og‘ish" deb ta'riflaydi. Uning fikricha, deviatsiya ijtimoiy tuzilmaning mahsuli bo‘lib, jamiyatning ma'lum bir qismi tomonidan me'yorlarni buzish orqali namoyon bo‘ladi.[3]

O‘smir yoshida esa deviatsiya turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin, bu esa ularning psixologik holati, o‘zini tutish tarzi va atrofdagi jamiyatga moslashishiga ta'sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada o‘smir yoshidagi bolalarda uchraydigan deviatsiyaning asosiy turlari va ularning sabablari ko‘rib chiqiladi.

1. Jismoniy deviatsiya — bu o‘smirning o‘z jismoniy holati va tashqi ko‘rinishida jamiyat tomonidan kutilgan me'yorlardan chetga chiqishi. Jismoniy deviatsiyaga quyidagilar kiradi:

Semizlik yoki ortiqcha vazn olish. Bunday o‘smirlar ko‘pincha o‘z jismoniy holatini boshqalar bilan solishtirishadi va bu ularning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

Kamqonlik (anemiya). Ba'zan o‘smirlar ratsionida yetarli ozuqa moddalarining bo‘lmasligi natijasida jismoniy rivojlanish kechikadi.

Jismoniy rivojlanishning kechikishi. O‘smirlik yoshidagi ayrim bolalar boshqa tengdoshlari bilan solishtirganda jismoniy jihatdan orqada qolishadi, bu ularni o‘zini noqulay his qilishiga olib kelishi mumkin.

Malakaviy amaliyotdagi kuzatuvlarimizda ayon bo‘ldiki, bugungi kundagi barcha o‘smirlarda deviatsiyaning bu shaklini ko‘rishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab tabiiy mahsulotlardan ko‘ra, yarimtayyor va kimyoviy moddalardan iborat zararli maxsulotlarning iste’mol qilinishi va bularning ota-ona, tarbiyachi-pedagoglar tomonidan nazoratga olinmaganliklaridir.

2. Psixologik deviatsiya — bu o‘smirning o‘z ichki hissiyotlari, fikrlari yoki hissiy holati normadan chetga chiqishi bilan bog‘liq. Bunday deviatsiya, ko‘pincha stress, oilaviy muammolar, jamiyatdagi noaniqliklar yoki individual psixologik xususiyatlar natijasida yuzaga keladi. Psixalogik deviatsiyaga quyidagilar kiradi:

Depressiya va bezovtalik. O‘smirlik davrida ruhiy holat o‘zgaruvchan bo‘ladi, va ba'zan o‘smirlar doimiy stress, o‘zlikni anglashdagi muammolar yoki oilaviy tashvishlar natijasida depressiyaga duchor bo‘lishlari mumkin.

Aggressiya va befarqlik. Bunday o‘smirlar o‘zini boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lmasligi yoki ijtimoiy muhitga moslashishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

O‘z-o‘zini tanqid qilish va o‘zgarishlarni qabul qila olmaslik. O‘smirlar ko‘pincha o‘z ichki tajribalari va o‘zlarini jamiyatga moslashtirish borasida katta bosimni his qilishadi.

Bugungi shakllanayotgan o‘smirlarning aksariyat qismida aynan mana shu deviatsiya shali natijasida jinoyatlar, qonun va huquqbuzarlik holatlari shuningdek, o‘z joniga qasd qilish kabi juda yomon vaziyatlar yuzaga kelmoqda. Albatta bu bevosita ijtimoiy muhitning ta’siri natijasida desak adashmagan bo‘lamiz. Bugun ota-onalar farzandiga mexr, e’tibor bermay qo‘yabdi. Ularning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanmayabdi. Qimmatli vaqtlarini esa moddiyatga sarflashmoqda. Buning natijasida o‘z fikriga ega bo‘lmagan, qo‘rqoq, zaif, jinoyatga moyil bolalar yetishib chiqmoqda.

3. Ijtimoiy deviatsiya — bu o‘smirning ijtimoiy normalarni va madaniy me'yorlarni buzishidan kelib chiqadi. Ijtimoiy deviantlik o‘smirlar o‘z tengdoshlariga, oila va jamiyatga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lishlari, me'yorlardan chetga chiqadigan xulq-atvorlar namoyon bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy deviatsiyaga quyidagilar kiradi:

Jinoyatchilik. O‘smirlar ba'zan kichik jinoyatlar, o‘g‘irliklar yoki boshqalarga zarar yetkazish bilan shug‘ullanishadi. Bu, ko‘pincha oila va jamiyatda yetishmayotgan ehtiyojlar, shaxsiy muammolar yoki ijtimoiy tengsizlikka javob sifatida yuzaga keladi.

Narkotik moddalar va alkogol iste'moli. O‘smirlar ba'zan hayotdagi qiyinchiliklardan qochish yoki muammolarni hal qilish uchun narkotik moddalarni yoki alkogolni iste'mol qiladilar.

O‘zini himoya qilish yoki o‘limga moyillik. Ayrim o‘smirlar o‘zini anglashdagi qiyinchiliklar yoki ichki iztiroblar tufayli ekstremal yo‘llarni tanlashlari mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi” ning 2- bobida yosh avlodni mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy Malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirish maqsadini amalga oshirish uchun ustuvar vazifalar belgilab qo‘yilgan. Aynan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi”ning “Oila, ta’lim muassasalari va mahalla, shuningdek, ommaviy axbarot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo‘lga qo‘yish” vazifasi deviatsiyaning bu shaklini bartaraf etishimizda xizmat qiladi. Negaki, xalqimizda “Bir bola uchun yeti mahalla qo‘shni” degan maqol bejizga aytilmagan. Bola xulq-atvoriga tashqi muhit ya’ni oilasi, o‘z tengdoshlari va jamiyatdagi odamlar yomon ta’sir ko‘rsatar ekan. Buning natijasida bolada ijtimoiy deviatsiya shakli yuzaga keladi. Shunday ekan bolaning har tomonla to‘g‘ri shakllanishida oila bilan birga ta’lim muassasalari va jamiyat birday ma’suldir.

4. Axloqiy deviatsiya - o‘smirlarning ijtimoiy va axloqiy me'yorlarga zid bo‘lgan xulq-atvorlar bilan bog‘liq. Bunday holatlar ko‘pincha ota-onalar va ta'lim muassasalarining ta'siri, o‘smirning axloqiy qarashlarining shakllanishi, shaxsiy qadriyatlar tizimi va o‘zligini anglash jarayoniga ta'sir ko‘rsatadi. Axloqiy deviatsiyaga quyidagilar kiradi:

Qonunlarga qarshi xulq-atvor. O‘smirlar jamiyat tomonidan belgilangan qoidalarni buzish, qonunlarga qarshi harakatlar qilishlari mumkin.

Ijtimoiy mas'uliyatsizlik. O‘smirlar ba'zan jamiyatga yoki o‘zining kelajagi uchun mas'uliyatni to‘liq his etmasliklari mumkin, bu esa ularni salbiy yo‘nalishlarga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘smirlik davri – bu shaxsiyatning shakllanishi, o‘zini anglash va jamiyat bilan muvofiqlikni ta'minlash jarayonining murakkab va muhim bosqichidir. Shu sababli bu jarayonlarda oilaning roli, ta'lim muassasalarining ta'siri hamda voyaga yetmagan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash tizimi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek ularni jismonan ham ruhan ham sog‘lom bo‘lib yetishsishida hamma ijtimoiy institutlarning birgalikda ish olib borishi zaruriyatdir. Taraqqiyot yoshlar qo‘lida ekan, qo‘rqoq, zaif, jinoyatchi farzandlarni emas balki, zukko, bilimdon, tirishqoq, kreativ hamda kritik fikrovchi shu bilan birga yuksak ma’naviyatli bolalarni tarbiyalashni har birimiz o‘z oldimizga oliy maqsad qilib olishimiz kerak. Bitta bola nafaqat bir ota-onaning, oilaning balki butun bir davlatning, millatning yuzi demakdir.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M “ Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. T.: - O‘zbekiston. 2017. 23 b
2. Asadov Yu. "O‘smirlar deviant xatti-harakatining psixologik xususiyatlari " -Toshkent. 2011. 22-26 b
3. 1. Merton, R. K. (1968). Social Theory and Social Structure. New York: Free Press
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori
5. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik texnologiya. T., 2004
6. Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari, sabab va yechimlari. Maqolalar to‘plami. Toshkent. 2020.

4- SHO‘BA. OLIY TA’LIM TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI